XALQ DEPUTATLARI ROMITAN TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 24-yanvar VI-105-1-2-40-K/25 Romitan tumani

Romitan tumanida “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 5 yanvardagi “Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5-sonli hamda Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 9 fevraldagi “«Suv yetkazib berish xizmati» davlat muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 79-sonli qarorlariga asosan tumanda “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 27 va 127-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 9 fevraldagi “«Suv yetkazib berish xizmati» davlat muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 79-sonli qaroriga muvofiq quyidagilar:

suv xo‘jaligi tashkilotlari tomonidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarga suv yetkazib berish xizmatlari uchun to‘lovlar bekor qilinganligi;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga tushgan tushumning 40 foizi suv yetkazib berish xizmatlari faoliyatini moliyalashtirish, ularga tegishli ob’yektlarni saqlash va texnik holatini yaxshilash xarajatlariga yo‘naltirilishi;

tuman hokimligining 2024 yilgi tasdiqlangan mahalliy budjet daromadlari va xarajatlarini suv solig‘ining prognoz qilingan summasini 40 foizga teng miqdorda oshirish yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga; suv solig‘i tushumi past bo‘lgan holatda suv yetkazib berish xizmatlari xodimlari ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarni amalga oshirish uchun yetishmaydigan mablag‘larni irrigatsiya bo‘limlarini saqlash xarajatlari uchun mahalliy budjetda ajratilgan mablag‘larni tuman byudjeti o‘rtasida qayta taqsimlash bo‘yicha xalq deputatlari viloyat Kengashiga taklif kiritish belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Kengashlariga hududdagi “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari faoliyatini moliyaviy ta’minlash maqsadida belgilangan tartibda Xalq deputatlari tuman Kengashi qaroriga asosan suv solig‘ining prognoz qilingan summasini 40 foizga oshirilishi hisobiga mahalliy budjetning 2024 yil uchun belgilangan daromadlari va xarajatlari miqdorini **1-ilovaga muvofiq** teng miqdorlarda oshirilsin.

Bunda, soliq tushumlari prognoz ko‘rsatkichini oshirilishida qishloq xo‘jaligi korxonalari uchun yil davomida suv yetkazib berish hajmining o‘sishi ko‘zda tutilganligi inobatga olinsin.

3. Romitan tumani iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Amonov), Romitan tuman Suv yetkazib berish xizmati DM rahbari (G’.G’aybllayev), tuman G‘aznachilik xizmati boshlig‘i hamda tuman hokimligi bilan birgalikda:

qishloq xo‘jaligi korxonalarining suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovidan tegishli mahalliy budjetiga haqiqatda kelib tushgan mablag‘larni 40 foizini har oy yakuni bo‘yicha belgilangan muddatlarda tegishli tartibda “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasining budjetdan tashqari g‘azna hisobvarag‘iga o‘tkazilishini ta’minlasin.

4. Romitan tumani soliq inspeksiyasi (B.G’aybllayev) Romitan tumanida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni sug‘orish va baliqlarni yetishtirish (o‘stirish) uchun foydalanilgan suv hajmi, shu jumladan, dehqon xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovlarini belgilangan muddatlarda undirish choralari ko‘rilsin.

5. Suv yetkazib berish xizmatlarining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

limitlar asosida suv iste’molchilariga suv yetkazib berish;

o‘ziga biriktirilgan hududda suvning hisobi va hisobotini yuritish;

sug‘orish tarmoqlari va ulardagi gidrotexnik inshootlarni himoya zonalaribilan birgalikda soz holatda saqlash, ta’mirlash-tiklash ishlarini amalga oshirish;

o‘z hisobidagi suv olish joylarini suvni boshqarish va hisobga olish vositalari bilan jihozlash, suv monitoringi, hisobi va hisobotini yuritishni raqamlashtirish;

iste’molchilar kesimida iste’mol qilingan suv hajmi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni soliq organlariga taqdim qilib borish;

suv iste’molchilarining buyurtmanomasi asosida boshqa suv xo‘jaligi xizmatlarini ko‘rsatish;

Shu bilan birga, Suv yetkazib berish xizmatlari rahbarlari amalga oshirilgan ishlar yuzasidan bir yilda ikki marta xalq deputatlari tuman Kengashlariga hisobot berib borishi belgilansin.

6. Xalq deputatlari tuman Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-4-019-2-40-K/24-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

7. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi zimmasiga yuklansin.

Sessiya raisi



ATOYEVA RAHIMA KAMOLOVNA

Xalq deputatlari Romitan tumani
Kengashining
2025-yil 24-yanvardagi
VI-105-1-2-40-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Romitan tumanida “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi faoliyatini moliyaviy ta’minlash maqsadida tegishli mahalliy byudjetlarning 2024 yil daromadlari va xarajatlarini oshirish miqdorlari

mln so‘mda

№	Hududlar nomi	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha qarzdorlik hamda hisoblanishi kutilayotgan prognozi	2024 yilda suv solig‘i bo‘yicha tushumlarni 40 foizga oshirish rejasi	2024 yilda “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalarini saqlash uchun xarajatlarni oshirish rejasi
1	Romitan tumani	3 480,6	1 392,0	1 392,0